

VALYUTA SIYOSATI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Sultonaliyeva Zulayxo Shirzod qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali talabasi

sultonaliyevazulayho@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada valyuta siyosatining milliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri nazariy asoslar va amaliy tahlillar orqali o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli tahlil, statistik ko'rsatkichlarni solishtirish, xalqaro tajribani tahlil qilish va mahalliy sharoitda kuzatilgan empirik natijalarni umumlashtirishdan iborat. O'rganilgan davr mobaynida valyuta siyosatining eksportni rag'batlantiruvchi va investitsiya muhitini yaxshilovchi omil sifatida xizmat qilgani, biroq inflyatsion bosim va ijtimoiy himoyaga ehtiyojni kuchaytirgani aniqlangan. Xulosa qismida milliy iqtisodiyotda barqaror valyuta siyosatini shakllantirish bo'yicha kompleks yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: valyuta siyosati, milliy iqtisodiyot, valyuta liberallasuvi, inflyatsiya, eksport, investitsiya muhiti.

Milliy iqtisodiyotning barqarorligi ko'p jihatdan samarali valyuta siyosatiga bog'liq. Ayniqsa, ochiq iqtisodiy tizimga ega bo'lgan davlatlarda eksport-import muvozanati, investitsion iqlim va narxlar barqarorligi kabi omillar valyuta kursiga bevosita bog'liq. O'zbekiston singari rivojlanayotgan davlatlar uchun valyuta siyosatining to'g'ri yuritilishi iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati va tashqi moliyaviy munosabatlarning mustahkamlanishida muhim o'rin tutadi. Valyuta siyosati bu asosan markaziy bank tomonidan milliy valyutaning almashuv kursini barqarorlashtirish, to'lov balansini muvozanatlash, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladigan choralar yig'indisidir. Har bir mamlakat o'zining iqtisodiy holati, tashqi savdodagi ishtiroki va global moliyaviy tizim bilan aloqasiga qarab o'ziga xos valyuta siyosatini yuritadi.

So'nggi yillarda globallasuv jarayoni dunyo taraqqiyotining istiqboldagi rivojini belgilab beruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Bugungi kunda har qanday davlat o'zining tashqi va ichki siyosatini belgilashda bevosita ushbu jarayonning namoyon bo'lishi va u keltirib chiqarayotgan oqibatlarni inobatga olishga majbur bo'lmoqda. Barchaga ma'lumki, pul iqtisodiyotning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi va ma'lum ma'noda iqtisodiyotni boshqarib turuvchi kuchlardan biri sanaladi. Shu sababli, uni nazorat qilish va tartibga solish har bir mamlakatning iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, valyuta siyosati valyutani tartibga solishning muhim usuli va omilidir. Valuta siyosati monetar siyosatning tarkibiy qismi hamda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatda inflyatsion jarayonlarning chuqurlashishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiyotning pul mablag'lariga bo'lgan



talabini qondirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kredit institutlarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish, milliy valyuta kurslarining barqarorligini ta‘minlashda valyuta siyosati muhim o‘rin tutadi. Buning sababi shundaki, majburiy zaxira siyosati tijorat banklarining kreditlash salohiyatiga, shu jumladan, uzoq muddatli kreditlar berish salohiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan monetar instrument hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda importning o‘rnini qoplash va eksportga yunaltilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-kuvvatlash dasturi amalga oshirilmokda. Mazkur dasturning maqsadi, mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan imkon boricha to‘liq va samarali foydalanish hamda uni rivojlantirish asosida eksport hajmining barqaror o‘sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo‘nalishlarga keng jalb qilish, ularga kafolat va imkoniyatlar berish, litsenziyalar, nou-xaular sotib olishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Valyuta siyosatining ikki asosiy shakli mavjud: qat‘iy (fixed) va suzuvchi (floating) kurs tizimlari. Qat‘iy valyuta siyosatida milliy valyuta kursi boshqa muayyan bir valyutaga yoki valyutalar savatiga bog‘lanadi. Bu siyosat narxlar barqarorligini ta‘minlashda samarali bo‘lsa-da, tashqi shoklarga moslashish imkoniyatlarini cheklaydi. Suzuvchi valyuta siyosatida esa valyuta kursi bozor talab va taklifi asosida erkin shakllanadi. Bu holatda valyutaning real qiymati aniqlanadi, lekin kursning haddan ortiq tebranishi iqtisodiyotga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar aralash (yoki boshqariladigan suzuvchi) kurs tizimidan foydalanadi, bunda markaziy banklar bozorga bevosita yoki bilvosita aralashib, valyuta kursini muayyan darajada ushlab turishga harakat qiladi.

Milliy valyutaning qadrsizlanishi (devalvatsiya) eksport qilinayotgan mahsulotlarning narxini xalqaro bozorda arzonlashtiradi, bu esa eksport hajmini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, import qimmatlashadi, bu ichki ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardosh bo‘lishga undaydi. Natijada savdo balansi ijobiylashadi. Biroq importga bog‘liqlik yuqori bo‘lgan iqtisodiyotlarda bu inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin.

Valyuta siyosatining shaffofligi va barqarorligi xorijiy investorlar uchun muhim omildir. Investitsiya kiritilgan mamlakatda valyutani erkin konvertatsiya qilish, daromadni olib chiqib ketish imkoniyati va valyuta kursining prognoz qilinishi investorlar ishonchini oshiradi. Aksincha, kursdagi beqarorlik va valyutaga kirishdagi cheklovlar investitsiya xavfini oshiradi.

Valyuta siyosatining bevosita aholining turmush darajasiga ham ta‘siri bor. Import tovarlar narxining oshishi, ayniqsa oziq-ovqat, dori-darmon va yoqilg‘i kabi zaruriy mahsulotlar narxini ko‘taradi, bu esa aholining xarid qobiliyatini kamaytiradi. Shu sababli, barqaror valyuta siyosati ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim hisoblanadi.

Ma‘lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. U mamlakatning jahon hamjamiyatiga bo‘lgan aloqasini ifodalab, uning istiqbolini belgilab beradi. Eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat ichida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga erishiladi. Mamlakat eksporti hamda



importining qiymati o'rtasidagi farq, ya'ni saldo tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining muhim iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich milliy daromad darajasiga ko'p tomonlama ta'sir etadi. Sababi, import va eksport hajmidagi sezilarli o'zgarish ham mamlakatdagi daromad, bandlik va narx darajalarida muayyan tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda keskin raqobatlashuv sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Valyuta siyosati milliy iqtisodiyot uchun juda muhim. To'g'ri olib borilgan valyuta siyosati iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi, eksport va importni muvozanatda ushlab turadi, inflyatsiyani nazorat qiladi va investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Shuningdek, valyuta kursining o'zgarishi odamlarning hayotiga ham ta'sir qiladi, shuning uchun bu siyosatni pul-kredit va boshqa iqtisodiy choralarga moslab yuritish kerak. Umuman olganda, valyuta siyosati milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. - 756 b
2. O'lmasov Ahmadjon. Iqtisodiy bilim asoslari: (Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun darslik) -T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-144 b
3. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T.
4. Zulayxo S. The role and importance of cognitive technology in digital economy //Eurasian Journal of Entrepreneurship and pedagogy. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 20-21.
- 5.Sultonaliyeva Z. ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15377681> //Journal of International science networks. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 115-118.
- 6.Xudoyarov R., Nizametdinov A. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALlashuvida KICHIK VA O'RTA BIZNES // Central Asian Journal of Education and Innovation. 2023. -T. 2.-Ni. 6 2-qism.-C. 188-193.
- 7 Xudoyarov R., Nizametdinov A. DUNYO IQTISODIYOTINING GLOBALlashuvida KICHIK VA O'RTA BIZNES Central Asian Journal of Education and Innovation. 2023. T. 2. -No. 6 2-qism.-C. 188-193.
- 8.Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sherzod Y. INHIRIZLARNING KESHBABLARI VA IQTISODIYOT TIZIMGA TA'SIRI //O'quv fanlaridagi Akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali, 2022. T. 1.-№. 12.-S. 89-94.



9. Sojida D., Bahrom H., Ali N. IQTISODIYOTNING JAMIYATDAGI O'RNI //PEDAGOGIKA FANLARI VA O'QITISH METODIKASI, 2022-T. 2. №. 18.- C. 309-315.

10. Xolmurodovich X. B. va boshqalar. DAVLAT VA NODAVLAT SHAKLLARI TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH //Jurnal of Akademik tadqiqotlar va

11. Ta'lim fanlari tendentsiyalari 2022. T. 1. №. 12. C. 258-265. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI O'RNI //O'quv fanlaridagi Akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jumali. - 2022. -T. 1.12.95-99 ERN SCIENCE 9.

12. <https://cyberleninka.ru/article/n/barqaror-rivojlanishni-ta-minlashda-yashil-iqtisodiyot-ning-o-rni>

13. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажикабиев ва бошқалар. – Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.

14. YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH Meliqo'ziyeva Dilrabo Muxitdin qizi Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti

15. Abdurakhmanov R. Determination of traffic congestion and delay of traffic flow at controlled intersections //The American Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 4. – №. 10. – C. 4-11.

16. Karimov H. Y., Azimova S. B. Analysis of genotypic variants of the polymorphism of the CYP2C9 gene in the Uzbek population //Mezhdunarodnyi meditsinskii zhurnal. – 2012. – C. 106-109.

17. https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@ed_emp/docume 18. Mishkin, F. S. (2016). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson.

19. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2021). International Economics: Theory and Policy. Pearson.

20. Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls

21. <https://cyberleninka.ru/article/n/valyuta-moliya-munosabatlarining-globallashuvi-va-uning-rivojlanayotgan-mamlakatlar-iqtisodiyotiga-ta-siri>.

